

ISSN:3060-4567 Modern education and development
ABDULLA QAHHOR HIKOYALARINING KOMPOZITSIYASI
VA BADIY XUSUSIYATI.

Nartosheva Mukaddas Voxid qizi

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Usarova Laylo Ibragimovna

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek hikoyachiliga katta hissa qo'shgan A. Qahhor ijodi, uning asarlari badiiy qurilishi ochib berilgan. Uning hikoyalari orqali syujet unsurlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: A. Qahhor, hikoya, tugun, kompozitsiya, badiiy qurilish, konflikt, yechim, sheva, dialog epik shakl.

O'zbek adabiyotida o'zining ixcham va ravon hikoyalari bilan tanilgan adib, Abdulla Qahhor, asar qahramonlarini xalq ichidan topardi. Uning asarlari urush davri voqealarini ko'rsatadi. Hikoyalarini o'qiyotgan har bir kitobxon, voqealar qanchalar jonlilagini, qahramonlarning hissiyotlarini ko'z oldiga keltiradi. Abdulla Qahhor ijodidagi bu kabi xususiyatlar, adibning o'zi ham aynan mana shu urush, qiyinchilik davrida beg'ubor bolaligini o'tkazganidan dalolat beradi.

Adibning ijodida alohida o'ringa ega bo'lgan janr bu hikoya janri edi. Uning o'ttizinchi yillarda, "Anor", "Bemor", "Millatchilar", "O'g'ri" kabi bir necha hikoyalari yaratildi.

Hikoya adabiyotimizda epik turning eng kichik janrlaridan biri hisoblanadi. Adabiyotshunos olim D. Qur'onov hikoyani kichik epik shakllar sirasiga kiritadi.[1:192] Unda voqea -hodisalar ixchamlikka asoslanadi. Bundan tashqari ularda ekspozitsiya, konflikt kabi tushunchalarni ham uchratishimiz mumkin.

Abdulla Qahhor jahon adabiyoti namoyandasasi A. Chexovning ko‘plab asarlarini tarjima qiladi. Shu sababdan adib hikoyalarida Chexov ijodi sezilib turadi.

Uning "Anor" hikoyasi o‘ziga xos kompozitsiyaga ega. Hikoyada voqealar rivoji Turobjonning ayoli anorga boshqorong‘i bo‘lishidan boshlanadi. Asar tayyor syujet asosida yaratilgan. Ya’ni hikoya qahramonlari va voqealar bizga o‘tmishni eslatib turadi.

Turobjon va uning ayoli o‘z ruhiy dunyosida turli fikrlar bilan to‘qnash keladi, yechimi yo‘q savollar girdobida qoladi. Bu esa asarda ichki konflikt mavjudligini bildiradi. Er -xotinning tortishib qolishi, Turobjonning jahl bilan uyidan chiqib ketib, kechki payt bir tugun anor bilan sarosimada kirib kelishi asar kulminatsiyasi hisoblanadi.

To‘g‘ri, hikoyaning bosh mavzusi, muammosi anor edi, u olib kelinib asar yechimi bo‘ldi, deyishimiz mumkin. Lekin xulosa qilishga shoshilmaymiz. A. Qahhor hikoyalarining o‘ziga xosligi ham mana shunda. Adibning ko‘plab hikoyalarida voqealar kulminatsiya bilan tugab, yechim kitobxonlar ixtiyoriga tashlanadi. Ya’ni hozirgi hikoyada Turobjonning anorni sarosimada, qo‘rquvda olib kelishi kitobxonlar o‘rtasida "u anorni qayerdan olib keldi?", "axir uning puli yo‘q edi -ku!" kabi bahs, munozaralarga sabab bo‘ladi. Balki, shu bahslar orqali kitobxon hikoyaning yechimini topar...

"O‘g‘ri" hikoyasi voqealari ham shu holda tugagan, ya’ni kuzda ma'lum bo‘ladigan" kichkinagina"shart.

Abdulla Qahhorning" Dahshat" hikoyasi ekspozitsiyadan boshlanib, yechim bilan yakun topadigan hikoya hisoblanadi.

Asarda Dodho bilan Unsinning bahslashishi jarayonida tugun paydo bo‘ladi. Tugunda asar qahramonlari o‘rtasida konfliktning paydo bo‘lishi ya’ni boshlanishi tasvirlanadi. U harakatni belgilaydi, voqealar rivojiga turtki bo‘ladi, ularga aniq yo‘nalish beradi. Tugun kitobxonni tasvirlanajak voqealar ichiga yetaklaydi, qahramonlar taqdiriga qiziqtiradi. U asarning turli (boshida, o‘rtasida, oxirida) kelishi mumkin. N. V. Gogolning" O‘lik jonlar" asarida tugun oxirida keladi. G‘. G‘ulomning "Mening o‘g‘rigina bolam" hikoyasida esa tugun boshida

uchraydi.[2;68] Ya'ni hikoyaning boshi o'g'irlilik bilan boshlanadi. Qolgan voqealar ham tugundan so'ng davom etadi.

A. Qahhor hikoyalari, nafaqat ixcham va ravon, balki badiiy qurilishi ham juda mukammaldir.

Adib hayotda ham, badiiy ijodda ham o'z haqiqatlarini topgan, shu haqiqatlar uchun astoydil kurashgan yozuvchidir. Rus olimasi I. Borolina qayd etganidek," Abdulla Qahhor ijodiga qiziqish uning shaxsiyatiga, insoniy mohiyatiga qiziqish bilan bevosita bog'langan. Uning shaxsiy fazilatlari -fikrlash tarzi, xarakteri, g'ayrat -shijoati, ma'naviy dunyosi asarlarida shu qadar yorqin aks etganki, yozuvchi A. Qahhor bilan uning shaxsi ichdan ajralmas aloqada bo'lib ko'rinadi.[3;2]

Shunday qilib, odamlar hayotidan olingan epizodlarda ular hayotiga, qismatiga daxldor voqealarni ko'rish, teran his etish, personajlar xarakteri va qismatini ularning ruhiyati ifodasi orqali gavdalantirish A. Qahhor hikoyanavislik san'atining eng muhim jihatlaridir. Uning hikoyalari mukammal badiiy kompozitsiyaga ega.

Hikoyalarida adib tug'ilgan joyi-Qo'qon shevalaridan unumli foydalangan. Qarg'ish so'zlari ham ko'p ishlatilgan.

-Hu o'l, turqing qursin! Boshingga solaymi shu bilan! Sadqai odam ket-e!

Bilamizki, A. Qahhor o'zbek adabiyotida hikoyanavislik yo'nalishida so'zlardan mohirona foydalanuvchi adibdir. Asarlarida qahramonlar o'rtasidagi suhbat, mojaro va bahslarni dialogik nutqda mohirona ifodalaydi.

-Ha, sigir yo'qoldimi?

-Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.

-Ho'kizmi? Tovbaa!

-Yo'qolmasdan avval bormidi?[4;78]

Shu kabi dialoglarda qahramonlar ruhiy holati, savollari, taajjublari bayon etilgan.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor hikoyalari, nafaqat badiiy qurilish, balki har bir o'qiyotgan kitobxonning "Unsinning aybi nima edi?", "4yashar qiz azonlab duo o'qishi shartmidi? ", "oddiy xalq amaldorlar qo'lida o'yinchoqmi?",

" nahotki insonlarning 2dona anorga puli yetmasa?" kabi ko'plab savollarga ko'mib tashlovchi mukammal kichik asarlardir.Haqiqiy badiiy asar yillar, asrlar o'tsada, aslo o'z ma'nosini yo'qotmaydi, kitobxonlar tomonidan sevib o'qiladi. Yozuvchi A. Qahhor hikoyalari ham shunlar jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D. Quronov "Adabiyotshunoslikka kirish" Toshkent. 2004.242-b.
2. I. Tashmuhammedova "Adabiyot tarixi va nazariyasi" 1-qism. Toshkent. 2020.68-b.
- 3.I. Mingboyev" A. Qahhor hikoyalarining eng muhim jihatlari" maqolasi. Toshkent. 2023.2-b.
4. A. Qahhor"Anor". Toshkent. 2012.78-b.